

O'ZBEKISTON SPORT HUQUQIDA SPORTCHINI VAQTINCHA IJARAGA OLISH INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21254734>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston sport huquqida sportchini vaqtincha ijaraga olish institutining huquqiy tabiati, amaldagi tartibga solishdagi bo'shliqlar va uni takomillashtirish istiqbollari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Muallif sportchini vaqtincha ijaraga olishni oddiy mulkiy ijara shartnomasi emas, balki sportchi, asosiy klub va qabul qiluvchi klub manfaatlari kesishadigan kompleks, aralash va sui generis shartnomaviy konstruktsiya sifatida baholaydi. Maqolada olimlarning sport shartnomalari, transfer tizimi, vaqtinchalik o'tish va mehnat funksiyasining xususiyati haqidagi qarashlari asosida O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: sport huquqi, sportchini vaqtincha ijaraga olish, transfer shartnomasi, sport kontrakti, fuqarolik-huquqiy javobgarlik, mehnat huquqi, uch tomonlama shartnoma, FIFA reglamenti, lex sportiva.

Zamonaviy professional sport iqtisodiy muomala, mehnat bozori va shartnomaviy-huquqiy munosabatlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy institutga aylandi. Ayniqsa futbol, basketbol, voleybol, xokkey kabi jamoaviy sport turlarida sportchining bir klubdan boshqasiga vaqtinchalik o'tishi amaliyoti sport natijasini yaxshilash, yosh sportchilarga o'yin amaliyoti berish, klubning transfer siyosatini moslashuvchan tashkil etish hamda sportchining bozor qiymatini saqlab qolish vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda. FIFA va boshqa xalqaro sport tashkilotlari reglamentlarida professional sportchini boshqa klubga vaqtincha berish mexanizmi tan olingan bo'lsa-da, milliy qonunchiliklarda mazkur institutning huquqiy tabiati turlicha talqin qilinadi¹.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda sport sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, professional sport infratuzilmasini rivojlantirish va sport tashkilotlarining iqtisodiy mustaqilligini oshirish borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. 2026-yil 24-martda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun sport sohasidagi munosabatlarni kompleks tartibga solishga qaratilgan bo'lib, sohada sport federatsiyalari, sport tashkilotlari va davlat organlarining vakolatlarini aniqroq belgilashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, professional sportchilarning vaqtinchalik boshqa klubga o'tishi, ijara asosidagi transfer shartnomasi, kompensatsiya to'lovlari, o'yinchining roziligi va javobgarlik mexanizmlari masalalari hali ham alohida, tizimli va maxsus huquqiy tartibga solishni talab qiladi². O'zbekiston huquq tizimida sportchini vaqtincha ijaraga olish instituti to'liq shakllangan mustaqil shartnomaviy institut sifatida normativ jihatdan mustahkamlanmagan.

¹ FIFA. Regulations on the Status and Transfer of Players. January 2025 edition. Art. 10; FIFA Global Transfer Report 2025

² O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. 24.03.2026-yil, O'RQ-1123-son // Lex.uz.

Mehnat kodeksida sportchining boshqa ish beruvchiga vaqtincha o'tishi bilan bog'liq maxsus norma mavjud bo'lsada, u asosan mehnat-huquqiy mexanizmini belgilaydi va klublar o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni, kompensatsiya, transfer huquqlari, shartnomaviy javobgarlik va sport yurisdiksiyasi masalalarini to'liq qamrab olmaydi. Shuning uchun sportchini vaqtincha ijaraga olish institutini kompleks, tarmoqlararo va sport huquqining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda takomillashtirish zarur³.

O'zbekiston sport huquqida sportchini vaqtincha ijaraga olish institutining amaldagi holatini ilmiy jihatdan baholash, olimlarning nazariy qarashlari asosida uning huquqiy tabiatini ochib berish hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun sportchi ijarasining tushunchasi, shartnoma subyektlari, predmet, sportchining roziligi, mehnat va fuqarolik-huquqiy elementlar nisbati, xalqaro tajriba hamda javobgarlik masalalari tahlil qilinadi.

Sportchini vaqtincha ijaraga olish institutining mohiyatini aniqlashda, avvalo, "ijara" atamasining sport huquqidagi shartli xarakterini to'g'ri tushunish lozim. Fuqarolik huquqidagi klassik ijara shartnomasida ijara obyekti odatda ashyo yoki mulkiy huquq bo'ladi. Sportchi esa hech qanday holatda shartnoma obyekti sifatida qaralishi mumkin emas, chunki u mustaqil huquq subyekti, mehnat qilish erkinligi va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir. Shu sababli sportchi ijarasi deganda sportchining shaxsi emas, balki uning professional sport faoliyatidan muayyan muddat davomida foydalanish, ya'ni sport natijasiga yo'naltirilgan mehnat funksiyasini vaqtincha boshqa klub doirasida amalga oshirish tushunilishi lozim⁴.

A.N. Lomov professional futbolchilarni "ijara" asosida o'tkazishni futbolchining bir klubdan boshqa klubga o'tishidagi alohida huquqiy shakl sifatida baholaydi. Uning fikricha, ushbu shaklning asosiy belgisi vaqtinchalik xarakterda namoyon bo'ladi, chunki sportchi doimiy tarzda emas, balki oldindan kelishilgan muddatga qabul qiluvchi klubda faoliyat yuritadi. Mazkur yondashuv sportchi ijarasini oddiy transferdan farqlash imkonini beradi: oddiy transferda sportchining klub bilan bog'liqligi yakunlanadi, vaqtinchalik ijara munosabatida esa asosiy klub bilan bo'lgan huquqiy aloqa muayyan darajada saqlanib qoladi⁵.

E.T. Musayev sport munosabatlariga fuqarolik-huquqiy vositalar ta'sirining kuchayib borayotganini ta'kidlab, professional sportda shartnomaviy munosabatlarni faqat mehnat huquqi mezonlari bilan baholash yetarli emasligini ko'rsatadi. Haqiqatan ham, professional sportchining klub bilan munosabati ish haqi, mehnat intizomi va mashg'ulot rejimi bilan cheklanib qolmaydi.

Bunda transfer qiymati, kompensatsiya, bonuslar, reklama, imij huquqlari, o'yinlarda ishtirok etish imkoniyati va sportchining bozor qiymati kabi fuqarolik-huquqiy hamda tijorat elementlari ham muhim o'rin egallaydi⁶.

O.O. Oqyulov, B. Musayev va N. Imomov tomonidan sport kontraktlari huquqi doirasida bildirilgan qarashlar sport shartnomalarining o'ziga xos xususiy-huquqiy tabiatga ega ekanini

3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 28.10.2022-yil, O'RQ-798-son, 503-modda // Lex.uz.

4Borisenko Yu.K. Transfernyy kontrakt na usloviyakh "arendy" s pozitsii grazhdanskogo prava Rossiyskoy Federatsii // Molodoy uchenyy. – 2016. – №3-2. – S. 24–26.

5Lomov A.N. "Arenda" professionalnykh futbolistov: nekotorye aspekty pravovogo regulirovaniya // Vestnik Universiteta imeni O.E. Kutafina. – 2015. – №4. – S. 74–77.

6Musayev E.T. Sport munosabatlariga fuqarolik-huquqiy vositalar ta'sirining zamonaviy tendensiyalari: yurid. fan. dok. (DSc) avtoref. – Toshkent: TDYU, 2025. – B. 31, 44.

ko'rsatadi. Ularning fikricha, sport kontraktlari umumiy shartnoma huquqi qoidalariga tayansa-da, sport faoliyatining musobaqaviyligi, sportchi shaxsiga bog'liqligi va sport federatsiyalari reglamentlari bilan bevosita uyg'unlashganligi sababli maxsus huquqiy yondashuvni talab qiladi.

Demak, sportchini vaqtincha ijaraga olish instituti ham umumiy fuqarolik shartnomalaridan kelib chiqadigan qoidalar bilan bir qatorda sport huquqining maxsus tamoyillari asosida tartibga solinishi kerak⁷.

Mazkur institutning eng asosiy xususiyati uning uch tomonlama tabiatida ko'rinadi.

Sportchi ijarasi bo'yicha munosabatda kamida uch manfaatdor subyekt ishtirok etadi: birinchisi sportchini vaqtincha berayotgan asosiy klub; ikkinchisi sportchini vaqtincha qabul qilayotgan klub; uchinchisi sportchining o'zi. Agar ushbu munosabat faqat ikki klub o'rtasidagi mulkiy kelishuv sifatida baholansa, sportchining mehnat qilish erkinligi va shaxsiy roziligi e'tibordan chetda qoladi. Agar u faqat mehnat shartnomasi sifatida talqin qilinsa, klublar o'rtasidagi kompensatsiya, transfer huquqlari va shartnomaviy javobgarlik mexanizmlari to'liq ochilmaydi.

Shu nuqtai nazardan sportchini vaqtincha ijaraga olish shartnomasi sui generis, ya'ni o'ziga xos, aralash va kompleks shartnoma sifatida baholanishi maqsadga muvofiq.

M.I. Braginskiy nomlanmagan va aralash shartnomalar haqidagi ta'limotida zamonaviy fuqarolik muomalasi ehtiyojlari yangi shartnomaviy konstruktsiyalarni yuzaga keltirishini ta'kidlaydi. Sportchi ijarasi ham aynan shunday konstruktsiyalardan biridir: u fuqarolik, mehnat va sport huquqi elementlarini yagona tartibga solish mexanizmida birlashtiradi⁸.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida sportchilar mehnatini tartibga soluvchi maxsus normalar mavjud. Xususan, 503-modda sportchining boshqa ish beruvchiga vaqtincha o'tishi, bunday o'tish davrida yangi ish beruvchi bilan muddatli mehnat shartnomasi tuzilishi va dastlabki mehnat shartnomasi amal qilishining vaqtincha to'xtatib turilishini nazarda tutadi. Ushbu norma sportchining mehnat-huquqiy maqomini saqlab qolish uchun muhim kafolatdir. Biroq u sportchi ijarasi institutining barcha tarkibiy elementlarini qamrab olmaydi.

Birinchi muammo sportchini vaqtincha ijaraga olish shartnomasining fuqarolik-huquqiy tabiati milliy qonunchilikda aniq belgilanmaganidir. Amalda sportchi ijara munosabati klub va klub o'rtasida tuziladigan shartnoma, sportchining roziligi, qabul qiluvchi klub bilan tuziladigan mehnat shartnomasi va sport federatsiyasi reglamentlaridagi ro'yxatdan o'tkazish tartibining yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Biroq mazkur elementlarning o'zaro nisbatini belgilovchi yagona normativ model yo'q.

Ikkinchi muammo shartnoma predmetini noto'g'ri talqin qilish xavfidir. Ayrim amaliy holatlarda sportchining "transfer huquqi", "ro'yxatdan o'tkazish huquqi" yoki "sportchining o'zi" shartnoma predmeti sifatida ko'rsatilishi mumkin. Bunday yondashuv fuqarolik huquqi va mehnat huquqining asosiy prinsiplariga mos kelmaydi.

7Musayev E., Oqyulov O., Imomov N. Sport kontraktlari huquqi. – Toshkent: TDYU, 2022. – 300 b.

8Braginskiy M.I. Osnovy ucheniya o nepoimenovannykh (bezymnyannykh) i smeshannykh dogovorakh. – Moskva, 2007.

Y.K. Borisenko transfer shartnomasini fuqarolik-huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilar ekan, sportchining shaxsi emas, balki klubning sportchi xizmatidan belgilangan tartibda foydalanish imkoniyati shartnomaviy manfaat markazida turishini ta'kidlaydi⁹.

Uchinchi muammo sportchining roziligi masalasi yetarli darajada protsessual kafolatlanmagan. Sportchini vaqtincha boshqa klubga o'tkazishda uning yozma roziligi talab qilinishi tabiiy. Lekin rozilik qanday shaklda berilishi, undan voz kechish oqibatlari, sportchining majburiy bosim ostida rozilik berishining oldini olish mexanizmlari va rozilikni sport federatsiyasi tomonidan tekshirish tartibi aniq ko'rsatilmasa, bu huquq amalda formal xarakterga ega bo'lib qolishi mumkin.

To'rtinchi muammo — javobgarlik masalalarining tarqoq tartibga solinganidir.

Vaqtinchalik ijara davrida sportchi jarohat olsa, intizomiy qoidalarni buzsa, o'yin amaliyoti berilmasa yoki qabul qiluvchi klub kompensatsiya to'lovlarini bajarmasa, qaysi subyekt qanday javobgar bo'lishi aniq belgilanishi kerak. Mehnat huquqi nuqtai nazardan ish beruvchi qabul qiluvchi klub bo'lishi mumkin, ammo asosiy klubning ham sportchiga nisbatan strategik va mulkiy manfaatlari saqlanib qoladi. Fuqarolik-huquqiy nuqtai nazardan esa klublar o'rtasidagi shartnomaviy javobgarlik mustaqil ahamiyatga ega.

Sportchini vaqtincha ijaraga olish institutini takomillashtirish, avvalo, uning huquqiy tabiatini to'g'ri belgilashdan boshlanishi lozim. O.A. Shevchenko professional sportdagi mehnat munosabatlarini tahlil qilar ekan, sportchilar mehnatini umumiy mehnat huquqi qoidalari bilan tartibga solish zarurligini inkor etmagan holda, sport sohasining maxsus xususiyatlari alohida huquqiy modelni talab qilishini ko'rsatadi. Bu qarash sportchi ijarasiga ham to'liq tatbiq etiladi: sportchi bir vaqtning o'zida mehnat huquqi himoyasida bo'ladi, biroq uning vaqtinchalik o'tishi klublar o'rtasidagi shartnomaviy va iqtisodiy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq¹⁰

S.A. Tukmanov professional futbolchining mehnat-huquqiy maqomi xususiyatlarini o'rganib, sportchining oddiy xodimdan farqli ravishda musobaqalarda ishtirok etish, klub sport natijasiga hissa qo'shish, sport rejimiga rioya qilish va transfer qoidalarga bo'ysunish kabi maxsus majburiyatlarga ega ekanini asoslaydi. Demak, sportchi ijarasini tartibga solishda faqat umumiy "xodimni boshqa ish beruvchiga o'tkazish" mexanizmi yetarli emas, sportchining sport natijasi, ro'yxatdan o'tkazilishi va musobaqalarda qatnashish huquqi ham e'tiborga olinishi lozim¹¹.

V.P. Vaskkevich professional sport munosabatlarini umumhuquqiy tahlil qilar ekan, sport shartnomalarida shaxsiy, mulkiy va tashkiliy elementlar birgalikda mavjud bo'lishini ko'rsatadi.

Sportchini vaqtincha ijaraga olishda ham aynan shunday uchlik kuzatiladi: shaxsiy element sportchining roziligi va mehnat faoliyati; mulkiy element kompensatsiya, bonus, ijara to'lovi; tashkiliy element federatsiya ro'yxatidan o'tkazish, transfer oynasi, musobaqa qoidalari¹². A.V. Zavgorodniy va E.K. Axmatshina sportchilarning ijara shartlaridagi o'tishini mehnat-huquqiy

9Борисенко Ю. К. "Трансферный контракт на условиях" аренды" с позиции гражданского права Российской Федерации //Молодой ученый. – 2016. – №. 3-2. – С. 24-26.

10Shevchenko O.A. Pravovaya doktrina regulirovaniya truda v sfere professionalnogo sporta i puti ee realizatsii v Rossii. – Moskva: Prospekt, 2015.

11Tukmanov S.A. Osobennosti trudopravovogo statusa professionalnogo futbolista. – Moskva, 2007.

12 Vaskkevich V.P. Grazhdansko-pravovoe regulirovanie otnosheniy v oblasti professionalnogo sporta: obshcheppravovoy analiz. – Kazan, 2006. – 16 s.

jihatdan tahlil qilib, bunday munosabatda asosiy klub, qabul qiluvchi klub va sportchi o'rtasida murakkab huquqiy aloqalar yuzaga kelishini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv O'zbekiston qonunchiligi uchun muhim, chunki mavjud Mehnat kodeksi normasi sportchining vaqtinchalik o'tishini ko'zda tutgan bo'lsada, klublar o'rtasidagi fuqarolik-huquqiy elementlarni alohida tartibga solmaydi¹³. Sh.A. Xodjimurotov professional futbolchilarning mehnat shartnomalarini tahlil qilib, sportchi mehnat shartnomasi oddiy mehnat shartnomasidan o'zining muddatligi, sport natijasiga yo'naltirilganligi, musobaqaviy majburiyatlar va transfer qoidalarini bilan farqlanishini ta'kidlaydi. Bu fikr sportchi ijarasi institutida ham muhim: vaqtinchalik ijara shartnomasi sportchining asosiy mehnat shartnomasi va qabul qiluvchi klub bilan tuziladigan muddatli mehnat shartnomasi o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashi kerak¹⁴.

M.B. Tleumuratov professional sport munosabatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solish zaruratiga e'tibor qaratib, sport sohasi faqat mehnat munosabatlari doirasida emas, balki tijorat, xizmat ko'rsatish, mulkiy huquqlar va shartnomaviy javobgarlik bilan bog'liq kompleks munosabatlar sifatida qaralishi lozimligini asoslaydi. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, sportchi ijarasi bo'yicha qonunchilikda fuqarolik-huquqiy shartnoma modeli alohida ko'rsatilishi zarur¹⁵.

Sportchini vaqtincha ijaraga olish institutida fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki, mazkur munosabatda klublar o'rtasida kompensatsiya, muddat, sportchidan foydalanish, shartnoma shartlariga rioya qilish va zararlarni qoplash kabi masalalar mavjud. Agar qabul qiluvchi klub ijara to'lovini to'lamasa, sportchini shartnomada belgilangan maqsadlarda foydalanmasa yoki uni uchinchi klubga ruxsatsiz o'tkazishga urinsa, bu fuqarolik-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqarishi kerak.

Fuqarolik kodeksining umumiy qoidalarini shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik uchun zararni qoplash, neustoyka va boshqa javobgarlik choralarini nazarda tutadi. Biroq sportchi ijarasi bo'yicha maxsus javobgarlik elementlari ham bo'lishi lozim. Masalan, sportchining ro'yxatdan o'tkazilmasligi sababli musobaqalarda qatnasha olmasligi, transfer oynasi o'tib ketishi, sportchining tayyorgarlik jarayonida ishtirok etmasligi yoki klub tomonidan sportchi huquqlarining buzilishi oddiy shartnomaviy zarar bilan bir qatorda sport natijasi va kasbiy rivojlanish bilan bog'liq maxsus oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Shartnomada javobgarlikni aniqlashtirish uchun quyidagi yondashuv taklif etiladi: birinchidan, klublar o'rtasidagi mulkiy majburiyatlar bo'yicha fuqarolik-huquqiy javobgarlik; ikkinchidan, sportchining mehnat huquqlari buzilishi bo'yicha mehnat-huquqiy javobgarlik; uchinchidan, federatsiya qoidalarini buzish bo'yicha sport-intizomiy javobgarlik alohida ajratilishi kerak. Bunday differensial yondashuv har bir huquqbuzarlik uchun mos huquqiy oqibatni qo'llash imkonini beradi.

Sportchining o'zi tomonidan shartnoma majburiyatlari buzilgan taqdirda ham javobgarlik adolatli bo'lishi lozim.

13Zavgorodniy A.V., Akhmatshina E.K. Perekhod i transfer na usloviyakh arendy sportsmenov v rossiyskom professionalnom sporte: trudopravovoy aspekt // Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta. Pravo. – 2025. – T. 16. – №4. – S. 1170–1185.

14Xodjimurotov Sh.A. Professional futbolchilar mehnat shartnomalarining huquqiy ahamiyati: yurid. fan. fal. dok. (PhD) avtoref. – Toshkent: TDYU, 2023. – 54 b.

15Tleumuratov M.B. Professional sport munosabatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solish: yurid. fan. fal. dok. (PhD) avtoref. – Nukus, 2023.

Sportchi qabul qiluvchi klubning ichki tartib qoidalari, mashg'ulot rejimi va musobaqaviy majburiyatlariga rioya qilishi kerak. Biroq sportchiga nisbatan qo'llanadigan javobgarlik chorasi uning mehnat huquqlarini asossiz cheklamasligi, kelajakdagi professional faoliyatini mutanosib bo'lmagan darajada og'irlashtirmasligi zarur. Shu sababli jarima, diskvalifikatsiya, shartnomani bekor qilish va kompensatsiya choralari qo'llashda mutanosiblik prinsipi asosiy mezon bo'lishi kerak.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlikni takomillashtirishning yana bir yo'li — namunaviy ijara shartnomasi shaklini ishlab chiqishdir. Unda taraflarning huquq va majburiyatlari, kompensatsiya, muddat, tibbiy sug'urta, ro'yxatdan o'tkazish, o'yin amaliyoti, javobgarlik va nizolarni hal qilish tartibi namunaviy tarzda ko'rsatiladi. Bunday shakl majburiy emas, balki tavsiyaviy model sifatida klub va federatsiyalar uchun amaliy yordam beradi.

Xulosa qiladiga bo'lsak, sportchini vaqtincha ijaraga olish institutini takomillashtirish O'zbekiston professional sport bozorida huquqiy aniqlik, shartnomaviy intizom va sportchilar huquqlarining samarali himoyasini ta'minlaydi. Mazkur institutni maxsus sport-huquqiy shartnoma sifatida rivojlantirish milliy sport huquqining zamonaviy tendensiyalar bilan uyg'unlashuviga, klublar faoliyatining shaffoflashuviga va xalqaro sport standartlariga moslashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. FIFA. Regulations on the Status and Transfer of Players. January 2025 edition. Art. 10; FIFA Global Transfer Report 2025
2. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni. 24.03.2026-yil, O'RQ-1123-son // Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 28.10.2022-yil, O'RQ-798-son, 503-modda // Lex.uz.
4. Borisenko Yu.K. Transfernyy kontrakt na usloviyakh "arendy" s pozitsii grazhdanskogo prava Rossiyskoy Federatsii // Molodoy uchenyy. – 2016. – №3-2. – S. 24–26.
5. Lomov A.N. "Arenda" professionalnykh futbolistov: nekotorye aspekty pravovogo regulirovaniya // Vestnik Universiteta imeni O.E. Kutafina. – 2015. – №4. – S. 74–77.
6. Musayev E.T. Sport munosabatlariga fuqarolik-huquqiy vositalar ta'sirining zamonaviy tendensiyalari: yurid. fan. dok. (DSc) avtoref. – Toshkent: TDYU, 2025. – B. 31, 44.
7. Musayev E., Oqyulov O., Imomov N. Sport kontraktlari huquqi. – Toshkent: TDYU, 2022. – 300 b.
8. Braginskiy M.I. Osnovy ucheniya o nepoimenovannykh (bezymyannykh) i smeshannykh dogovorakh. – Moskva, 2007.
9. Борисенко Ю. К. Трансферный контракт на условиях "аренды" с позиции гражданского права Российской Федерации // Молодой ученый. – 2016. – №. 3-2. – С. 24-26.
10. Shevchenko O.A. Pravovaya doktrina regulirovaniya truda v sfere professionalnogo sporta i puti ee realizatsii v Rossii. – Moskva: Prospekt, 2015.
11. Tukmanov S.A. Osobennosti trudopravovogo statusa professionalnogo futbolista. – Moskva, 2007.

12. Vaskevich V.P. Grazhdansko-pravovoe regulirovanie otnosheniy v oblasti professionalnogo sporta: obshchepravovoy analiz. – Kazan, 2006. – 16 s.
13. Zavgorodniy A.V., Akhmatshina E.K. Perekhod i transfer na usloviyakh arendy sportsmenov v rossiyskom professionalnom sporte: trudopravovoy aspekt // Vestnik Sankt-Peterburgskogo universiteta. Pravo. – 2025. – T. 16. – №4. – S. 1170–1185.
14. Xodjimurotov Sh.A. Professional futbolchilar mehnat shartnomalarining huquqiy ahamiyati: yurid. fan. fal. dok. (PhD) avtoref. – Toshkent: TDYU, 2023. – 54 b.
15. Tleumuratov M.B. Professional sport munosabatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solish: yurid. fan. fal. dok. (PhD) avtoref. – Nukus, 2023